

TOG'AY MURODNING "OTAMDAN QOLGAN DALALAR" ROMANIDAGI  
BADIY OBRAZLAR TAVSIFI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7830055>

**Norbekova Sitora.**

*O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti talabasi*

*Tel.:+998 90 446 12 03; email: sitoranorbekova@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu asarda o'zbeklarning naqadar sodda, tanti xalq bo'lganligi va ruslar qo'lida ayovsiz ezilganligi, quldek kun kechirganligi, milliy ozodlik uchun olib borgan kurashlari parokandalikka yuz tutganligi, hech qanaqa haq-huquqi, erki qolmaganligi, sovet hukumati o'zbek xalqi boshiga qanchalik qora kunlarni solganligi yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Sovet tuzumi, Oqqodsho, "Paxta ishi", siyosat, kommunizm, hukumat, bosmachilar, Turkiston, qora xalq, SSSR, mafkura.*

O'zbek adabiyoti taraqqiyotida o'zining o'chmas izini qoldirgan, iste'dodli yozuvchi Tog'ay Murod hayotning ko'pchilik e'tibor qaratmaydigan jihatlarini ochib berishga harakat qilgan. Asarlari orqali boshqa ijodkorlarni takrorlamagan holda o'z badiiy qahramonlarini kashf etishni uddalagan adib sanaladi. Adabiy merosi u qadar ko'p miqdorni tashkil etmasa-da, o'ziga xos ifoda tarzi, soddaligi, badiiyati va ijro mahorati bilan kitobxonlar qalbida o'chmas iz qoldira oldi. Tog'ay Murodning "Otamdand qolgan dalalar" romanida qo'llangan iboralarning rang-barangligi, hayotiy qilib hikoya etilganligi, asar obrazlarini ochib berishdagi mahorati hamda kitob mutoalasi davomida o'quvchini asardagi muhitda yashab ko'rishga ham majbur eta olishini ko'rib, uning naqadar iste'dodli yozuvchi ekanligiga yana bir karra amin bo'lamiz. Yuqoridagi roman yakka shaxsni, ayrim insonlar turmush tarzi, xarakterinigina emas, balki shu taqdirilar ortida butun bir tuzumni, bir millatni ayanchli ahvolini gavdalantirib beradi. Asarda mustabid tuzum mohiyati, o'sha davrning haqiqiy qiyofasi, unga olib boruvchi yo'llar va uning asoratlari falsafiy ruhda ochib berilgan. Shu sababdan ham roman ijtimoiy-falsafiy ruhdagi roman deb yuritiladi. Adib bu ilk romani orqali o'z dunyoqarashi, tasavvurlarini gavdalantiradi, o'sha davr ijtimoiy hayotini, xalqining boshidan kechirganlarini yoritib beradi, go'yo ma'lum vaqt shu asardagi muhitda yashaydi, oddiy odamlar turmushini o'zgacha nigoh bilan anglash va ochib berish yo'lini tutadi.

Asar mazmuniga ko'ra mustabid tuzum sharoitida oddiy mehnat ahli o'zining noyob fazilatlarini - to'g'riso'zligi, mehnatsevarligi, odob-andeshasi, halolligi evaziga xor-zor bo'layotgani adib tomonidan kuyib-yonib tasvirlanadi. Yozuvchi roman markaziy qahramoni sifatida Dehqonqul obrazini tanlaydi. Obrazning otasi surxoni Aqrab (Aqrab chayon) - Qizil imperiya saltanatining tarkib topish davri guvohi, qo'li gul bog'bon, haqiqiy fidoyi inson. O'z xalqining ozodligi, tinchligi deb jang qilib, yovlarni-da

lol qoldirib, mardonavor holda jon taslim etgan. Bobosi Jamoliddin (Ketmon) - tug'ma mehnatkash qo'li gul dehqon, imon-e'tiqodi butun shaxs."Oqqodsho betini ko'rmayin ham, kuymayin ham " deya o'z dalasini yovga, kelgindi bosqinchilarga bo'shatib berib, toqqa chiqib ketgan va u yerda ham ketmon chopishnigina uddalay olgan Jamoliddin ketmon asarning chinakam qahramoni deb aytishimiz mumkin. Adib asarni bosh qahramonning Bobo va Otasi tarixini tanishtirishdan boshladi. Bunda biz o'zbekona qadriyatni ko'rishimiz mumkin. Chunki har bir insonning avlod-ajdodi kimligi har yerda sòrab surishtirilgan va bu anchagina muhim sanaladi. Bunday faxrli insonlarning avlodi ekanligini o'qib biz Dehqonqul haqida qisqacha tasavvurga ega bo'lib ulgurdik, albatta.

Bu roman o'zbek adabiyotida jiddiy badiiy kashfiyot bo'ldi. Kommunizmga ishonib o'zligini, erkini unutkan Dehqonqul asarda o'zbek xalqining chinakam timsoli sifatida tasvirlangan. Bu qahramon taqdiri orqali sovet hukumati o'zbek xalqini ne ko'ylarga solgani, ne-ne azob-uqubatlarga giriftor etgani, o'sha davrning fojeali qirralari mahorat bilan yoritib berilgan. Asarda Dehqonqul inson bolasi chidab bo'lmaydigan haqoratli qiynoqlarga, xo'rliklarga solinadi. Asarni o'qiguvchi qahramon bilan yashaydi, u bilan birga qiynaladi. Unga yordam berish chorasini-da izlasa ham ajab emas. Bu yozuvchining yuksak mahorati demakdir. Asarda sovet tuzumining asl basharasi ochib berilgan. "Sovet davri yaxshi edi" deydigan ba'zi "aqli" larni ko'zini ochadigan, kim aslida kimligini ko'rsatib bera olgan asardir.

Dehqonqul obrazi orqali Sovet dehqon qiyofasi gavalantirilgan asarda. Adabiyotimizda paxtakorlar mehnati, xotin-qizlarni bunga tun-u kun jalb qilinishi bayramona tarzda, xursandchilik muhitida tasvirlanar edi. Nega endi yomon kunlarni havas keltiradigan darajada go'zal qilib ko'rsatish kerak? Haqiqat qayerda qoladi? Tog'ay Murod o'z romani orqali o'sha soxtalik ortiga yashiringan haqiqatni ochib tashladi. Romandagi Dehqonqul obrazi orqali dabdabali mehnat ortida qanchalik azob, mashaqqat chekkan xalq turmushi yashirilganini yuzaga chiqardi. Mehnati evaziga hech narsa talab qilmagan sho'rlik o'zbek xalqi qanchalik qiynoqlar va xo'rliklarga uchragani kishini o'zbek xalqiga ich-ichidan achinish hissini tug'diradi, o'zbekni xo'rlagan har sahnasida sovet hukumatiga nisbatan cheksiz nafrat uyg'otadi. Asarda o'sha davr kishilarining mustaqil kunlarni naqadar qumsashi, sog'inchi gavalantirilgan. Uni o'qib yashayotgan zaminimizga shukronalar aytishni, vatanimizni yanada qattiqroq e'zozlab, sevishni ham o'rgansak ajab emas.

Dehqonqul - sodda, mehnatkash, rostgo'y, halol qishloq kishisi. Hukumatning har aytganini so'zsiz bajarar edi. U dalada paxta quchoqlab tug'ildi, paxta quchoqlab ulg'aydi, paxtaga umrini, jon-dilini berdi. U uchun dalalarini yaxshi saqlanishi, mo'l hosil berishi baxt edi. Shu tashvishlar bilan bo'lib oilasiga, farzandlariga ham vaqt ajratmas edi. Sovet mehmonlariga atab bozorlik qilib, qòy so'yar, lekin ro'zg'origa kelganda kambag'al bo'lar edi. Evazigachi? Shuncha fidokorligi evaziga nima oldi? Sakkiz yil qamoq jazosi bilan "mukofotlandi", xolos. Siyosatdan yiroq bo'lsa ham "Paxta ishi" bilan ayblandi. Jonkuyarligi, halolligi uchun qaytarilgan javob shu bo'ldi.

Essiz, essiz insonning qadri. Uning birdan bir aybi soddaligi edi. Unga qo'yilgan ayblovga zarracha ham aloqasi bo'lmagan.

Bu roman o'zbekman degan har bir inson o'qib chiqishi kerak bo'lgan kitob. Bu asar - biz xulosa qilib o'zligimizni anglaydigan asar. Bu asar - Sovet tuzumining asl basharasini ochib tashlaydigan asar. Chunki, Ruslarni Turkiston ustida qilgan zulmini hech qaysi yo'l bilan oqlab bo'lmaydi. Tog'ay Murod mana shu jasoratli ishga bel bog'lab, qo'lga qalam olgan hamda bu ma'suliyatli ishning uddasidan chiqqan ijodkor sanaladi. Uch avlodning boshidan kechirganlarini so'zlash asnosida butun millat ahvolini hikoya qiladi. Asar tili o'zbekona shevalar, qochirimlar va iboralar bilan boyitilgan bo'lib, kitobxon uchun hech ham zerikarlilik, mutoala qilish davomida qiyinchilik tug'dirmaydi. Aksincha, qiziqish uyg'otadi. Bu asar katta tarbiyaviy va ta'limiy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-falsafiy ruhdagi romandir. Otamdan qolgan dalalar - o'sha asr intihosida o'lkadagi yuz bergan o'zgarish natijasida bir necha avlod qalbini o'rta kelayotgan nido bo'lib yangradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. "MEN QAYTIB KELAMAN" Tog'ay Murod zamondoshlari xotirasida. To'plovchi: Masuma Ahmedova - T:2008.
2. Tog'ay Murod " Otamdan qolgan dalalar". - Toshkent:1994.
3. O'rozov A T. Murodning " Otamdan qolgan dalalar" asarining til xususiyatlari haqida // Til va adabiyot ta'limi. 2009. 5- son 45-47-bet